

**XOTIN QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA
QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

Rahmonova Durdona Qilich qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Tursunova Marhabo Bahodirovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi o'qituvchisii

Annotatsiya. *Maqolada xotin qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik tushunchasi, sabab bo'luvchi omillar va zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish, unga olib keladigan sabab va shart-sharoitlar.*

Tayanch so'zlar: *tazyiq, zo'ravonlik, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi, jinsiy, jismoniy, iqtisodiy, ruhiy zo'ravonlik, himoya orderi.*

**СИТУАЦИИ ДАВЛЕНИЯ И НАСИЛИЯ ОТНОСИТЕЛЬНО ЖЕН И
ОХРАННОГО ПРИКАЗА**

Аннотация. *В статье основное внимание уделяется понятию угнетения и насилия в отношении женщин и девочек, причинным факторам, каким доказательствам является охранный ордер и какие ограничения на него могут быть наложены.*

Ключевые слова: *притеснение, насилие, жертва притеснения и насилия, охранный ордер.*

**SITUATIONS OF PRESSURE AND VIOLENCE AGAINST WIVES AND
PROTECTION ORDER**

Annotation. *The article focuses on the concept of oppression and violence against women and girls, the causative factors, what kind of evidence a protection warrant is, and what restrictions can be placed on it.*

Key words: *harassment, violence, victim of harassment and violence, protection order.*

“Hamma odamlar o‘z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib tug‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik munosabatida bo‘lishlari kerak²⁸”.

²⁸ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1-modda

Tarixda ayollarni kamsitish evaziga erkaklarning ustunligini namoyon qilish oddiy hol sifatida qabul qilingan. Hatto erkaklar tomonidan ayollarning jazolanishi qonunan mustahkamlab qo'yilgan. Lekin XX asrning 70-yillariga kelib, oiladagi zo'ravonlik masalasi muhokama va e'tirozlarga sabab bo'la boshlagan. Shunda ham gap faqat jismoniy zo'ravonlik xususida borgan. Tarixga nazar solsak, ijtimoiy taraqqiyotning har bir bosqichida zo'ravonlikka asoslangan munosabatlarni ko'rish mumkin. Zero zo'ravonlik ham ijtimoiy munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida azaldan barcha jamiyatlarda mavjud bo'lib kelgan.

Har yili sayyoramiz bo'ylab yarim milliondan ortiq odam zo'ravonlikdan vafot etadi, ko'pchiligi jamoaviy va shaxslararo nizolar natijasida tan jarohatlari oladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, zo'ravonlik dunyo bo'ylab 15 yoshdan 44 yoshgacha bo'lgan odamlar o'limining asosiy sabablaridan biridir.

A.A.Guseinov va R.A.Apresyan kabi bir qator olimlarning fikricha: "Zo'ravonlikning mohiyati odamlar o'rtasidagi iroda erkinligini yo'q qilish jarayoni bo'lib, bir tomonning kuch ishlatish va tashqi majburlash yo'li bilan o'z irodasini boshqalarga yuklashidir".Olimlarning nazarida bitta fikrning ikkinchi fikrga o'z xohishi bilan bo'ysunish holati bundan mustasno. Misol uchun, oilada o'g'il otasining fikrini ma'qul bilib, unga o'z xohishi bilan bo'ysunishi zo'ravonlik holati hisoblanmaydi .

Bugungi kunga kelib tazyiq va zo'ravonlik ko'proq oilalarda kuzatilmoqda.Ayollarga nisbatan turmush o'rtog'i tomonidan zo'ravonlik va tazyiq o'tkazilishi sog'liqni saqlash va inson huquqlariga jiddiy putur yetkazmoqda. Shuning uchun ham ayollarga nisbatan qilinayotgan oilaviy zo'ravonlik global muammolardan biriga aynalib ulgurdi.Yurtimizda ham oiladagi tazyiq va zo'ravonliklardan ayollarni himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli 2019 –yilning 2-sentabrda ilg'or rivojlangan mamamlakatlar tajribalari asosida ishlab chiqilgan "Xotin qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O`RQ 561-son Qonun qabul qilindi.

Ushbu Qonuning 3-maddasiga ko'ra, **tazyiq va zo'ravonlikka shunday ta'rif beriladi:**

tazyiq — sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat (harakatsizlik), shilqimlik, ta'qib etish;

zo'ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun

bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik)

tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi — o‘ziga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilishi tahdidi ostida bo‘lgan yoki tazyiq va zo‘ravonlik natijasida jabrlangan ayol jinsidagi shaxs.²⁹

Demak, bizning fikrimizcha “Zo‘ravonlik – biror insonga nisbatan jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy ta‘sir o‘tkazish yoki ta‘sir o‘tkazish uchun qo‘rqitish orqali ularning sog‘lig‘i, sha‘ni, qadr qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa inson huquqlariga tajovuz qiladigan harakat yoki harakatsizlik; Tazyiq esa- uni sodir etganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, insonning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat yoki harakatsizlik” ekan.

Zo‘ravonlik va tazyiqqa sabab bo‘luvchi umumiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ta‘lim va madaniyat darajasining pastligi jinsiy zo‘ravonlikni sodir etish va jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lish ehtimolini oshiradi;
- bolalik davrida zo‘ravonlikni boshdan kechirish zo‘ravonlik qilish va unga duchor bo‘lish ehtimolini oshiradi;
- oilada kuzatilgan zo‘ravonlik tufayli zo‘ravonlik qilish va unga duchor bo‘lish ehtimoli oshadi;
- shaxsning antisotsial jihatdan buzilishi zo‘ravonlik qilish ehtimolini oshiradi;
- spirtli ichimliklar yoki narkotik moddalarni iste‘mol qilish zo‘ravonlik qilish va unga duchor bo‘lish ehtimolini oshiradi;
- erkaklarning zararli odatlari va xulq-atvor normalari, shu jumladan, ko‘pxotinlilikka moyillik va zo‘ravonlikni oqlaydigan munosabatlar zo‘ravonlik qilish ehtimolini keskin oshiradi;
- erkaklarga imtiyozli yoki yuqori lavozimni, ayollarga esa pastroq lavozimni belgilovchi ijtimoiy normalar erkaklar tomonidan amalga oshirilgan zo‘ravonlik holatlarini oqlash va bunga yo‘l ochib berish;
- ayollarning ishga joylashishdagi imkoniyatlarining cheklanganligi ularni tazyiq ostida yashashga ko‘nikishiga sabab bo‘ladi;
- gender tengligining quyi darajasi, ya‘ni diskriminatsion qoidalar ayollarning qaram bo‘lib, chidab yashashiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish, tazyiq va zo‘ravonliklarni oldini olish va ularni tazyiq zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha bir qancha normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ushbu normativ

²⁹ “Хотин қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-561-сон Қонуни. <https://lex.uz/docs/4494709>

hujjatlarga “Xotin qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Xotin- qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviymaishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3827 sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining “Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori³⁰ hamda “Tazyiqva zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderi berish ijrosini ta‘minlash va monitoringini yuritish to‘g‘risida”gi Nizom kiradi.

Yuqorida qayd etilgan normativ huquqiy hujjatlarga ko‘ra, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar quyidagi huquqlarga egadirlar:

Birinchidan, o‘ziga nisbatan tazyiq vazo‘ravonlik sodir etilganligi yoki ularni sodir etish tahdidi mavjudligi to‘g‘risida ariza bilan tegishli vakolatli organlar, tashkilotlar yoxud sudga murojaat etish.

Ikkinchidan, maxsus markazlarda, shuningdek, bepul telefon liniyasi orqali tekin huquqiy maslahat, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa turdagi yordamlar olish.

Uchinchidan, ichki ishlar organlariga himoya orderi berish to‘g‘risidagi talab bilan murojaat qilish, himoya orderi shartlari buzilgan taqdirda esa ularni bu haqda xabardor qilish;

To‘rtinchidan, sodir etilgan tazyiq va zo‘ravonlik natijasida o‘ziga yetkazilgan moddiy zararining o‘rni qoplanishi hamda ma‘naviy ziyon kompensatsiya qilinishi to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat etish.

“Xotin qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ 561-son qonunda xotin qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyalash maqsadida **himoya orderi** joriy etildi. Qonuning 3-moddasida, “**himoya orderi** — tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, xotin-qizlarga tazyiq o‘tkazayotgan yoki ularga nisbatan zo‘ravonlik sodir etgan shaxsga yoxud bir guruh shaxslarga nisbatan ushbu Qonunda belgilangan ta‘sir ko‘rsatish choralari qo‘llanilishiga sabab bo‘ladigan hujjat³¹”deb ta‘rif berilgan.

Himoya orderini taqdim etish vakolati hukumat qarori bilan ichki ishlar organlariga berilgan. Qonunchilik talabiga ko‘ra, order zo‘ravonlikdan jabrlangan yoki shunday xavf ostida qolgan xotin-qizlarga holat aniqlangan vaqtdan boshlab 24 soat ichida berilishi kerak va u 30 kungacha amal qiladi. Hujjatning amal qilish muddati jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra ko‘pi bilan 30 kungacha uzaytirilishi mumkin.

³⁰ ISSN:2181-3906 2024 International scientific journal <<MODERN SCIENCE AND RESEARCH>>VOLUME 3/ISSUE2/ UIF:8.2/MODERNSCIENCE.UZ 585

³¹ Турсунова, М. (2024). ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРГА НИСБАТАН СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЗЎРАВОНЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ. *Yevrosiyo Texnologiya Va Innovatsiyalar Jurnal*, 2(2), 96–102. Retrieved from <https://in-academy.uz/inde>

Agar xavf hali bartaraf etilmagan bo'lsa, himoya orderining amal qilish muddati tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchining arizasiga ko'ra ko'pi bilan bir yilgacha muddatga jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Himoya orderi berilgach, xususan, jabrlanuvchining zo'ravon bilan aloqasi taqiqlanadi, order amalda bo'lgan vaqtda ularning bir xonada bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, zo'ravon shaxs zimmasiga (jabrlanuvchilarni davolash, moddiy va ma'naviy zararni qoplash kabi) majburiyatlarni yuklaydi, uning qurol saqlash va olib yurish huquqi cheklanadi.

Zo'ravon ushbu taqiqlarni buzgudek bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning bir baravari (28 noyabr holatiga — 300 ming so'm)dan uch baravari (900 ming so'm)gacha bo'lgan summadagi jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosi bilan javobgarlikka tortilishi mumkin. Takroriy zo'ravonlik, shuningdek, taqiq va cheklovlarni buzganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan.

Xulosa qilib aytganda, tazyiq va zo'ravonlik azaldan mavjud bo'lib insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning salbiy shakli sifatida ilmiy jihatdan tadqiq qilinishi maqsadga muvofiq. Bunda tazyiq va zo'ravonlikning vujudga kelish sabablari va uning oqibatlari, uning jamiyatga ko'rstadigan salbiy ta'siri o'rganilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada dunyo olimlarning izlanishlari va ularning olgan natijalarini o'rganish bilan bir qatorda tazyiq va zo'ravonlikning vujudga kelish sabablaridan biri sifatida o'zimizning milliy va madaniy xususiyatlarimizni o'rganib o'zimiz ham izlanishlar olib borishimiz lozim. Jamiyatdagi tazyiq va zo'ravonlikni kamaytirish, ularning oldini olish va ular sabab vujudga kelgan oqibatlarni bartaraf etish borasida xalqora tajribalarni o'rganib, ularning qo'llagan amaliyotida yo'l qo'ygan kamchililarni tahlil qilish orqali o'zimizda ham jamiyatdagi holatni yaxshilash borasida turli mexanizmlar va amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish imkoni paydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 2 июлдаги “Ижтимоий реабилитация қилиш ва мослаштириш, шунингдек, оилавий-маиший зўрлик ишлатишнинг олдини олиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3827-сон қарори. <https://lex.uz/ru/docs/3804821>
2. “Хотин қизларни тазйқ ва зўравонликдан химоя қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-561-сон Қонуни. <https://lex.uz/docs/4494709>
3. “Хотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги ЎРҚ-562-сон Қонуни. <https://lex.uz/docs/4494849>
4. Татабадзе Г.С. Насилие как социальное явление. Вестник ВолГУ. Серия 7. Вып. 3. 2003-2004. – С.109–116. <https://cyberleninka.ru/article/n/nasilie-kak-sotsialnoe-yavlenie>
5. Гусейнов А.А., Апресян Р.Г. Этика: Учебник. – Москва: Гардарики, 2000. – С. 32.

5. Насилие в семье: как это влияет на ребенка и что делать? <https://www.unicef.by/press-centr/360.html?fbclid=IwAR1DliRgMqUPiXfx5BYiL87PeIqgYXeqrDenrRywBhUrKDNvtUZPatj64>

6. Родина И.В. Социальная проблематизация насилия в семье в современной России. Диссертация. 2007. – 355 с. <https://www.dissercat.com/content/sotsialnaya-problematizatsiya-nasiliya-v-seme-v-sovremennoi-rossii>

7. Усмонова Н. Хотин-қизлар ҳимояси доимий эътиборда. https://uza.uz/uz/posts/hotin-qizlarhimoyasi-doimiy-etiborda_2708099. Страусс А., Корбин Дж. Основы качественного исследования: обоснованная теория, процедуры и техники. Basics of Qualitative Research: Grounded Theory Procedures and Techniques. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. – 256 с.

8. Violence against women Prevalence Estimates, 2018. Global, regional and national prevalence estimates for intimate partner violence against women and global and regional prevalence estimates for non-partner sexual violence against women. WHO: Geneva, 2021. file:///C:/Users/violance%20against%20women.pdf

9. Турсунова , М. (2024). ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРГА НИСБАТАН СОДИР ЭТИЛАДИГАН ЗЎРАВОНЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ. *Yevrosiyo Texnologiya Va Innovatsiyalar Jurnal*i, 2(2), 96–102. Retrieved from <https://in-academy.uz/inde>

